



TALABALARDA SHAXSIY IDENTIFIKATSIYA SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Tursunboyeva Zarnigor Azamat qizi

G'ijduvon Tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi psixologi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, talabalarda shaxsiy identifikatsiya shakllanishi va uning ta'lim tizimidagi ahamiyati ilmiy o'rganilgan. Bundan tashqari maqolada, shaxsiy identifikatsiyaning talabaning ijtimoiylashuvi, emotsional barqarorligi va kasbiy yo'nalganligi kabi jihatdan tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *shaxsiy identifikatsiya, ijtimoiy muhit, psixologik mexanizm, shaxs, muloqot.*

Аннотация. *В данной статье научно изучено формирование личностной идентичности у студентов и ее значение в системе образования. Кроме того, в статье анализируется личностная идентичность в таких аспектах, как социализация студента, эмоциональная устойчивость и профессиональная направленность.*

Ключевые слова: *личная идентификация, социальная среда, психологический механизм, личность, общение.*

Abstract. *In this article, the formation of personal identity in students and its significance in the education system are scientifically studied. In addition, the article analyzes personal identification in such aspects as student socialization, emotional stability, and professional orientation.*

Keywords: *personal identification, social environment, psychological mechanism, personality, communication.*

Kirish. Talabalarda shaxsiy identifikatsiya shakllanishi zamonaviy psixologiya va ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Bu jarayon insonning o'zini anglash, shaxsiy qadriyatlarini shakllantirish va o'zini ijtimoiy muhitda tutish mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Talabalik davri inson hayotidagi eng faol o'zgarishlar bosqichi bo'lib, unda yoshlar yangi ijtimoiy rollarni o'zlashtiradi, mustaqil qaror qabul qilishni o'rganadi va shaxs sifatida o'zini kashf etadi. Shu sababli, shaxsiy identifikatsiya talabaning ijtimoiylashuvi, emotsional barqarorligi va kasbiy yo'nalishini aniqlashda muhim o'rin tutadi. Psixologik mexanizmlar orqali inson o'z "men" obrazini yaratadi, bu esa uning dunyoqarashi, qadriyati va o'ziga bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Shaxsiy identifikatsiya, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, madaniy xilma-xillik va raqamli axborot oqimining kuchaygan davrida murakkab jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Shu jarayonda talabalarining ichki motivatsiyasi, o'zini anglash qobiliyati va refleksiv tafakkuri asosiy psixologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, ularning oilaviy muhitdagi tarbiyasi, o'qituvchi

bilan munosabatlari ham shaxsiy identifikatsiya sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Har bir talaba o'ziga xos psixologik yo'l bilan identifikatsiya jarayonidan o'tadi, bu esa ularning hayotiy qarorlarini, hissiy muvozanatini va ijtimoiy rolini belgilaydi. Natijada, shaxsiy identifikatsiyaning psixologik mexanizmlarini o'rganish, ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shaxsiy identifikatsiya jarayoni murakkab psixologik tizim sifatida insonning o'zligini shakllantirishga xizmat qiluvchi ko'plab ichki va tashqi omillar bilan bog'liqdir. Bu jarayonning markazida shaxsning o'zini kim deb bilishi, qanday qadriyatlarni qabul qilishi va o'zini boshqalar bilan qanday solishtirishi turadi. Talabalik davrida bu mexanizm kuchli ijtimoiy ta'sirlar, o'quv motivlari va shaxsiy ideallar bilan yo'naltiriladi. Shaxsiy identifikatsiya orqali talaba o'zining ijtimoiy rolini, kasbiy yo'nalishini va hayotiy maqsadini anglaydi. Bu bosqichda psixologik mexanizmlar sifatida refleksiya, o'zini tahlil qilish, o'ziga baho berish va ijtimoiy taqqoslash faol ishlaydi. Shu jarayon davomida talaba o'zini jamiyatdagi o'rnini anglab boradi va ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantiradi. Shaxsiy identifikatsiya shakllanishida ichki motivatsiya, irodaviy sifatlar va emotsional barqarorlik ham muhim rol o'ynaydi. Agar bu mexanizmlar uyg'un rivojlanmasa, talabalarda shaxsiy noaniqlik, ijtimoiy begonalashuv yoki o'zini qadrsiz his etish holatlari yuzaga keladi. Shu sababli, talabalarda shaxsiy identifikatsiyani to'g'ri shakllantirish, ularning psixologik farovonligini ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi.

Zamonaviy psixologik yondashuvlar shaxsiy identifikatsiyani shaxsning o'zini idrok etish, ijtimoiy muhit bilan uyg'unlashish va ichki "men" konsepsiyasini shakllantirish jarayoni sifatida talqin etadi. Talabalik bosqichida bu jarayon yanada faol bo'lib, shaxs o'zining kasbiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatdan o'sishiga yo'naltiriladi. Identifikatsiya mexanizmlari talabaning o'z hayotiy qadriyatlarini tanlash, ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirish va ularni shaxsiy pozitsiyasiga moslashtirishga yordam beradi. Psixologik mexanizmlar orqali inson o'zini boshqalar bilan qiyoslaydi, o'zini anglaydi va ijtimoiy muhitdagi o'rnini aniqlaydi. Bu jarayonning muvaffaqiyati ko'p jihatdan talabaning o'z-o'zini boshqarish qobiliyati, emotsional intellekti va ijtimoiy moslashuv darajasiga bog'liqdir. Shaxsiy identifikatsiya orqali inson o'zining ichki va tashqi olamini uyg'unlashtiradi, bu esa psixologik barqarorlikning asosi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Shaxsiy identifikatsiya muammosi psixologik adabiyotlarda shaxsning o'zini anglash va ijtimoiy muhit bilan uyg'unlashish jarayoni sifatida keng tahlil etilgan. Gumanistik psixologiya vakillari K. Rojers va A. Maslou fikricha, shaxsiy identifikatsiya insonning o'z "men"ini anglash va o'z potensialini ro'yobga chiqarish bilan chambarchas bog'liqdir. Ularning qarashlarida o'zini anglash jarayoni ichki motivatsiya, mustaqil fikrlash va o'z-o'zini qadrlash bilan aniqlanadi. E. Erikson esa identifikatsiyani shaxs rivojining asosiy

bosqichlaridan biri sifatida ko'rib, ayniqsa, yoshlik davrida "rol identifikatsiyasi" inqirozi muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlagan. Bu davrda talabalarda shaxsiy qadriyatlar tizimi shakllanadi va ular o'zlarini ijtimoiy guruhlar bilan taqqoslab, kimligini anglay boshlaydi.

Shuningdek, L. S. Vigotskiy o'z asarlarida identifikatsiya jarayonini ijtimoiy munosabatlar orqali shakllanadigan psixik holat sifatida talqin etgan. Unga ko'ra, inson o'zini anglashni boshqalar bilan o'zaro muloqotda, ijtimoiy faoliyatda va ijtimoiy rollar orqali o'rganadi. Psixologik adabiyotlarda bu jarayonning muhim jihati sifatida shaxsning ichki dialogi, refleksiyasi va o'zini tahlil qilish qobiliyati alohida o'rganilgan. Shu nuqtai nazardan, shaxsiy identifikatsiya talabaning ijtimoiy tajribasini, hissiy rivojini va o'ziga nisbatan ishonchini mustahkamlovchi mexanizm sifatida baholanadi.

Rus psixologik maktabi vakillari, jumladan, A. N. Leontyev, S. L. Rubinshteyn, D. A. Leontyevlarning ishlanmalarida identifikatsiya shaxsning faolligi, ijtimoiy rollarni o'zlashtirish jarayoni va o'zini anglash mexanizmlari bilan izohlanadi. Ularning fikricha, insonning o'zini kim deb bilishi, o'z faoliyatida qanday yo'nalishga ega ekanligi, jamiyatdagi rolini qanday tushunishi shaxsiy identifikatsiyaning markaziy masalasidir. Rubinshteynning faoliyat nazariyasi asosida shaxs o'z "men"ini ijtimoiy faoliyatda ro'yobga chiqaradi va shu jarayonda o'zini tahlil qilish orqali identifikatsiya qiladi.

D. A. Leontyev esa shaxsning ma'no hosil qilish faoliyatiga urg'u berib, identifikatsiyani insonning hayotiy yo'nalishini belgilovchi ichki psixologik jarayon sifatida izohlaydi. Bu yondashuvda shaxsiy identifikatsiya insonning ongli faoliyatida, o'z maqsadlarini tushunishida va o'zini ijtimoiy tizimda joylashtirishida muhim o'rin tutadi. Rus olimlarining fikricha, shaxsiy identifikatsiya shunchaki "men kimman" degan savolga javob emas, balki bu jarayonning davomiyligi, o'zgaruvchanligi va refleksiv mohiyatini ifodalaydi. Talabalik davrida bu mexanizmlar o'zini sinovdan o'tkazish, yangi ijtimoiy rollarga moslashish va kasbiy identitetni shakllantirish orqali namoyon bo'ladi. Shu sababli, bu jarayonni o'rganish, ta'lim jarayonida shaxsning o'zligini mustahkamlovchi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

O'zbek psixologik maktabi olimlari ham talabalarda shaxsiy identifikatsiya masalasiga alohida e'tibor qaratib, uni milliy qadriyatlar, ijtimoiy-madaniy muhit va oila tarbiyasi bilan bog'lab o'rganishgan. Z. T. Nishonova, B. R. Qodirov, V. M. Karimova va Sh. V. Azizova tadqiqotlarida shaxsiy identifikatsiya insonning o'zini milliy, ijtimoiy va ma'naviy kontekstda anglash mexanizmi sifatida talqin etiladi. Ularning ilmiy izlanishlarida identifikatsiya shaxsning o'zligini ijtimoiy guruhlar, kasbiy faoliyat va madaniy qadriyatlar orqali shakllantirishda namoyon bo'lishi qayd etilgan. O'zbekiston sharoitida bu jarayon, ayniqsa, talabalarda ijtimoiy moslashuv, kasbiy yo'nalish va mustaqil fikrlashni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq.

B. R. Qodirovning fikricha, talaba o'z "men"ni anglashda jamiyatdagi ijtimoiy talablar va shaxsiy ehtiyojlar o'rtasida muvozanat topishi zarur. Z. T. Nishonova esa identifikatsiya jarayonida hissiy intellektning ahamiyatini alohida ta'kidlab, shaxsning o'zini anglash va boshqalarni tushunish ko'nikmalari o'zaro uyg'un bo'lishi kerakligini ko'rsatgan. Milliy psixologik adabiyotlarda bu jarayon ijtimoiy-psixologik moslashuv, ma'naviy yetuklik va fuqarolik ongining shakllanishi bilan uzviy bog'liq sifatida qaraladi. Shu bois, shaxsiy identifikatsiya o'zbek psixologiyasida shaxsning ijtimoiy faolligini, o'ziga ishonchini va ma'naviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida o'rganilmoqda.

G'arb psixologiyasida shaxsiy identifikatsiya masalasi ko'proq kognitiv va ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan talqin etiladi. A. Bandura, E. Fromm, E. Goffman va T. Tajfel kabi olimlar bu jarayonni ijtimoiy identitet va o'zini idrok etish nazariyalari asosida tahlil qilganlar. A. Bandura identifikatsiyani o'z-o'zini boshqarishning kognitiv modeli orqali izohlab, inson o'z xatti-harakatlarini o'ziga o'xshash shaxslar orqali shakllantiradi degan fikrni ilgari surgan. T. Tajfel esa ijtimoiy identitet nazariyasida inson o'zini ma'lum ijtimoiy guruh a'zosi sifatida qabul qilganida, o'zini anglash jarayoni kuchayishini ko'rsatgan.

E. Fromm shaxsiy identifikatsiyani insonning erkinlik, mas'uliyat va muhabbatni idrok etish qobiliyati bilan bog'lagan. G'arb adabiyotlarida bu jarayonning psixologik mexanizmlari sifatida refleksiya, o'z-o'zini baholash, empatiya va ijtimoiy o'zaro ta'sir keltirilgan. Shu nazariyalar asosida talabalarda identifikatsiya jarayoni ijtimoiy o'ziga xoslik, madaniy integratsiya va shaxsiy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali amalga oshadi. Shaxsiy identifikatsiya bu nuqtai nazardan nafaqat individual o'zlikni anglash, balki ijtimoiy jamiyat bilan uyg'un yashash strategiyasi sifatida talqin etiladi. Bunday yondashuv talabalarning psixologik barqarorligi va ijtimoiy faoliyatini mustahkamlovchi asosiy psixologik mexanizmlar tizimini shakllantiradi.

Muhokama. Talabalarda shaxsiy identifikatsiyaning shakllanish jarayonini muhokama qilishda eng avvalo bu jarayonning murakkab psixologik tuzilmasi va uning ijtimoiy-psixologik kontekstdagi o'rnini hisobga olish zarur. Shaxsiy identifikatsiya insonning o'zini anglash, o'ziga baho berish va ijtimoiy muhitdagi rolini aniqlash jarayoni sifatida talabalik davrida ayniqsa faol kechadi. Bu bosqichda shaxsning ichki "men" konsepsiyasi mustahkamlanadi, o'ziga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi va o'z hayotiy maqsadlariga intilish kuchayadi. Talabalar o'zlarini o'qish, mehnat va shaxsiy munosabatlar orqali sinovdan o'tkazib, o'z imkoniyatlarini baholaydilar. Shu bilan birga, ijtimoiy ta'sirlar, do'stlik, pedagogik muhit va ommaviy axborot vositalari identifikatsiya mexanizmlarining yo'nalishini belgilaydi.

Muhokama davomida ta'kidlash kerakki, talabaning o'zini kim deb bilishi va qanday rolni egallashi uning emotsional barqarorligi va ijtimoiy faoliyatiga bevosita ta'sir qiladi. Psixologik jihatdan sog'lom identifikatsiya ijobiy "men" obrazini

shakllantiradi va shaxsning o'zini qadrlash hissini mustahkamlaydi. Agar bu jarayon buzilsa, shaxsda ichki ziddiyat, noaniqlik va o'ziga ishonchsizlik paydo bo'lishi mumkin. Shu bois, talabalarda identifikatsiya jarayonini to'g'ri yo'naltirish psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlovni talab etadi. Bu esa ularning hayotiy pozitsiyasini barqarorlashtirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Shaxsiy identifikatsiya mexanizmlarining samarali ishlashi ko'p jihatdan talabalarning shaxsiy tajribasi, o'zini tahlil qilish qobiliyati va ijtimoiy muhitdagi faolligiga bog'liq. Muhokama jarayonida bu mexanizmlar — refleksiya, o'zini anglash, empatiya va o'zini boshqalar bilan taqqoslash kabi psixologik jarayonlar orqali namoyon bo'lishi aniqlanadi. Talaba o'zini boshqa insonlar bilan qiyoslash orqali o'zining ijtimoiy o'rnini belgilaydi va shaxsiy qadriyatlarini shakllantiradi. Shu sababli, o'zini anglash va o'zini boshqarish ko'nikmalari shaxsiy identifikatsiyaning asosiy negizini tashkil etadi.

Xulosa. Talabalarda shaxsiy identifikatsiya shakllanishining psixologik mexanizmlari tahlili shuni ko'rsatadiki, bu jarayon shaxsning ichki dunyosi, ijtimoiy muhit va ta'lim tizimi o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sir natijasida yuzaga keladi. Shaxsiy identifikatsiya insonning o'z "men"ini anglash, o'z qadriyatlarini shakllantirish va jamiyatdagi o'rnini belgilash orqali rivojlanadi. Talabalik davrida bu mexanizmlar ayniqsa faollashadi, chunki yoshlar o'z hayot yo'lini tanlash, kasbiy yo'nalishini aniqlash va ijtimoiy rolini mustahkamlash bosqichida bo'ladi. Shu davrda psixologik qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy moslashuv va emotsional barqarorlik identifikatsiya jarayonining muvaffaqiyatli kechishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Talaba o'zini anglagan sari, u o'z qarorlarini ongli ravishda qabul qiladi, mas'uliyatni his etadi va shaxsiy yetuklik sari intiladi. Shaxsiy identifikatsiyaning to'laqonli shakllanishi ijobiy "men" konsepsiyasini yaratadi va bu insonning ruhiy salomatligi hamda ijtimoiy faolligini ta'minlaydi.

Shu bois, ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, refleksiya ko'nikmalarini rivojlantirish va o'z-o'zini tahlil qilish imkoniyatini beruvchi muhit yaratish zarur. Talabalarda bu jarayonni rag'batlantirish orqali ularning shaxsiy mustaqilligi, ma'naviy barqarorligi va ijtimoiy faol pozitsiyasi shakllanadi. Bu esa ularni nafaqat bilimli, balki o'zini anglagan va mas'uliyatli shaxs sifatida jamiyatga tayyorlaydi. Shu nuqtai nazardan, shaxsiy identifikatsiya psixologik mexanizmlar tizimining asosiy tarkibiy qismi sifatida insonning o'zini rivojlantirish yo'lida yetakchi omil hisoblanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, talabalarda shaxsiy identifikatsiyani shakllantirish jarayoni uzluksiz psixologik va ijtimoiy rivojlanishni talab etadi. Bu jarayonning markazida shaxsning o'zini anglash, o'ziga baho berish va ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topish mexanizmlari turadi. Identifikatsiyaning sog'lom shakllanishi uchun ijtimoiy qo'llab-quvvatlov, ijobiy kommunikativ muhit va individual farqlarga e'tibor muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsiy identifikatsiya mexanizmlari muvaffaqiyatli



ishlaganda, talaba o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his etadi, o'z maqsadlariga ishonch bilan intiladi va ruhiy barqarorlikni saqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Лидия Бернгардовна Шнейдер. Профессиональная идентичность: Структура, генезис и условия становления. — 2001. Архивировано 27 декабря 2018 года.
2. Профессиональная идентичность, её структура и компоненты. cyberleninka.ru. Дата обращения: 14 ноября 2018.
3. Povarenkov, P. Psixologik xususiyatlar professional identifikatsiya. Identifikatsiya inqirozi va fuqarolik jamiyatini hakllantirish muammolari / P. Povarenkov // Ilmiy ishlar to'plami. – Yaroslavl: YaGPU, 2003. – S. 154–163.
4. Zeer, ha. F. (2003)Psixologiya kasbi:ucheb. posobie dlya studentov vuzov. 2-nashr. Moskva: Akademik loyiha; Ekaterinburg: Biznes kitob. – 336 b.
5. Плетнева М.А. Лидерство в образовании: по материалам исследований в педагогическом ВУЗе // Социс, 1996. № 6.
6. Политическое лидерство и политический плюрализм // Общественные науки, 1990.-№ 1